



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

FARG‘ONA VILOYATI AHOLISIDA AJRALISH JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna

g.f.d., professor

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: z_tadjieva@mail.ru

Qoraboyev Azizjon Abdurasul o‘g‘li

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: qoraboyevazizjon@gmail.com

Annotatsiya: Farg‘ona viloyati aholisini demografik jarayonlaridan ajralishni so‘nggi davrdagi vaziyatlarini o‘rganish va muommolarini tahlil qilish. Ajralishni yosh avlodga qanday salbiy jarayon ekanligini bildirish va jamiyatda ajralishga oid o‘z fikilarimizni bayon etish.

Kalit so‘zlar: ajralish, promille, koeffitsiyent, sotsial, nikoh, ajrim, demografiya.

FEATURES OF DIVORCE PROCESSES IN THE POPULATION OF FERGANA REGION

Tojiyeva Zulkhumor

Qoraboyev Azizjon

Annotation: To examine and analyze the situation of the population of Fergana region after the separation from demographic processes. To express what a negative process divorce is to the younger generation and to express our own views on divorce in society.

Keywords: divorce, promille, coefficient, social, marriage, divorce, demography.

Aholi takror barpo bo‘lishida nikoh va ajralish jarayoni eng muhim jarayonlardan bo‘lib, aholi shakllanishida muhim hisoblanadi. Bu jarayonlar aholi qatlamining demografik taraqqiyotida bevosita ta’sir qiluvchi omil bo‘lib, avlodlar takror barpo bo‘lishida alohida xizmat qiladi. Bunda, ayniqsa, ajralish bevosita roli o‘ynaydurgon jarayonlardan bo‘lib, uning o‘ziga berilgan ta’rifda er-xotinning hayotlik davrida nikohning bekor etilishidir.

Ajralish oqibatida aholi qatlamida tug‘ilishlarni kamayishiga, yosh tarkibini ulushlarini o‘zgarishiga va boshqa demografik muammolarga sabab bo‘ladi. “Ajralish murakkab sotsial-demografik jarayon bo‘lib, qator omillar ta’sirida sodir bo‘ladi” [2]. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hududlarida ham ajralish hodisalarida birmuncha ko‘payish kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlar ko‘rsatishicha, respublikada 2021-yil davomida 39,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan

bo‘lib, har 1000 ta aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan 0,3 promillega oshganligi kuzatildi, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 0,8 promille bo‘lgan. 2021-yilda respublikada jami nikohdan ajrashganlarning 50,5 foizi farzandsizlar, 28,4 foizi bitta farzand bilan va 21,1 foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2021-yilda nikohdan ajrashgan erkaklarning ma‘lumoti bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlar 17,2 foizini, o‘rta maxsus, kasbiy ma‘lumotga ega bo‘lganlar 52,9 foizini, umumiy o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lganlar 29,9 foizini tashkil etgan. 2021-yilda nikohdan ajrashgan ayollarning ma‘lumoti bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlar 13,3 foizini, o‘rta maxsus, kasbiy ma‘lumotga ega bo‘lganlar 62,4 foizini, umumiy o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lganlar 24,3 foizini tashkil etganligini kuzatish mumkin. Eng ajablanarlisi, borgan sari oliy ma‘lumotlilarda va o‘rta maxsus, kasbiy ma‘lumotga ega bo‘lganlarda ajralish tobora oshib boryatgaligi achinarlidir [4].

Bunday jarayonlar yillarda davomida murakkablashib bormoqda, bunga oddiy misol qilib Farg‘ona viloyatida nikohdan ajralishlar 2021-yil 4,3 mingga qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda har 1000 ta aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

Farg‘ona viloyati hududlar kesimida nikohdan ajralishlar dinamikasidagi o‘zgarishlar

№	Hududlar	2018-yil aholi soni	2018-yil ajrimlar soni	2018-yil ajrimlar %o	2020-yil aholi soni	2020-yil ajrimlar soni	2020-yil ajrimlar %o
1	Farg‘ona sh.	278,5	393	1,3	289,0	394	1,3
2	Qo‘qon sh.	245,5	334	1,2	252,7	331	1,3
3	Quvasoy sh.	90,2	101	1,0	93,2	80	0,9
4	Marg‘ilon sh.	228,3	162	0,7	235,0	156	0,7
5	Oltiariq	203,1	159	0,7	210,5	158	0,7
6	Qo‘shtepa	182,0	118	0,6	189,2	127	0,7
7	Bag‘dod	205,8	180	0,8	214,3	177	0,8
8	Buvayda	218,3	144	0,6	226,7	125	0,5
9	Beshariq	219,2	181	0,7	227,3	172	0,8
10	Quva	248,3	190	0,7	257,1	106	0,4
11	Uchko‘prik	218,7	117	0,5	227,4	121	0,6
12	Rishton	194,0	183	0,8	201,1	131	0,6
13	So‘x	74,8	34	0,4	77,7	43	0,5
14	Toshloq	193,5	107	0,5	201,0	101	0,5
15	O‘zbekiston	229,1	207	0,9	237,7	232	1,0
16	Farg‘ona t.	204,7	158	0,7	212,0	146	0,7
17	Dang‘ara	166,4	129	0,7	172,8	109	0,6
18	Furqat	113,8	106	0,9	117,3	84	0,7
19	Yozyovon	106,0	67	0,6	110,0	48	0,4

Jadval muallif tomonidan Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan malumotlarga ko'ra, 2018-yilda eng ko'p ajrimlar Farg'ona shahrida har ming kishiga 1,3 promille, Qo'qonda hap ming kishiga 1,2 promille va Quvasoy shahrida hap ming kishiga 1,0 promilleni tashkil qilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa So'x tumani 0,4 promille, Uchko'prik tumani 0,5 promille va Toshloq tumani 0,5 promille tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar yillar davomida o'zgarib kelgan bolib, ma'lumotlarni tahrir qilganimizda 2018-yil shahar, tuman hokimliklarining FHDY bo'limlari tomonidan 3070 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, hap 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promillega teng bo'ldi.

2020-yil 2,8 mingta nikohdan ajralishlar ro'y berdi, mos ravishda har 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilledan iborat bo'ladi. 2021-yil 3,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda hap 1000 ta aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promille bo'lganligi uning darajasi oshib borayotganligini yana bir bora tasdiqlaydi¹⁷.

2020-yilda eng ko'p ajrimlar Farg'ona shahri 1,3 promille, Qo'qon shahri 1,3 promille va O'zbekiston tumani 1,0 promilleni tashkil qilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Yozyavon va Quva tumanlari 0,4 promille, So'x, Toshloq va Buvayda tumanlari 0,5 promilleni tashkil qilgan bo'lib, Dang'ara, Uchko'prik va Rishton tumanlari esa 0,6 promille bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlarni 2021-yil eng yuqorisi Farg'ona shahri 2,1 promille, Qo'qon shahri 1,8 promille va So'x tumani 1,4 promilleni tashkil qiladi, eng past ko'rsatkichlar esa Quva tumani 0,7 promille, Yozyovon tumani 0,8 promille va Furqat tumani, Toshloq tumani, Rishton tumani, Buvayda tumani, Dang'ara tumani, Beshariq tumanlari 0,9 promilleni tashkil qilgan¹⁸.

Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyat hayotida ajrim degan salbiy jarayon yildan yilga ko'paymoqda. Buni oldini olish uchun milliylik va diniy qadriyatlarni kengaytirish, ommaviy axborot vositalarida esa ajralishga qarshi bo'lgan ko'rsatuvlarni ko'paytirish, siyosiy, iqtisodiy va psixologik ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, erta turmush qurish yosh oilaning reproduktiv salomatligiga katta tasir ko'rsatmoqda va ruhiy va psixologik kasalliklarni keltirib chiqarmoda. Bunday jarayonlarni oldini olish va kelajak avlodni oila qanday muqaddas rishta ekanligini bildirish maqsadida maktab va kollejlarda maxsus dasturlar ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir.

¹⁷ Tojiyeva, Z., Ibragimov, L. LABOUR MARKET AND EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN | TRH PRÁCE A ZAMESTNANOST' V UZBEKISTANE //Geograficky Casopisthis link is disabled, 2021, 73(4), стр. 359–374.

¹⁸ Tojiyeva, Z.N, Dusmanov, F.A, Ibragimov, L.Z. Divorcing procedures in Uzbekistan and its territorial features //International Journal of Scientific and Technology Research, 2020, 9(1), стр. 4096–4100.

Mazkur salbiy jarayonlarga sabab bo‘layotgan omillardan qo‘sh xotinlilik va shariy nikohdir. Qo‘sh xotinli bo‘lgan oilada nizolar kelib chiqishi yuqori bo‘lib, bunday jarayonda oilalarni buzilish jarayoni yuqorilashadi va oilada tug‘ilgan yosh farzandlarni ruhiyatiga va tarbiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ajralish hodisasi farzandlar tirik yetim yoki ota va ona o‘rtasida sarson bo‘lishining yuzaga kelib yosh avlodda oila muqaddas ekanligi, mehr, oqibat, va boshqa ijobiy tuyg‘ularni shakllanishi o‘rniga salbiy tuyg‘ular shakllanishiga sabab bo‘ladi [4].

Shariy nikoh bu davlat organlari FHDYO tomonidan ro‘yhatga olinmagan, qonuniy nikoh shartnomasiga ega bo‘lmagan, balki shariyat tomonidan tuzilgan oiladir. Ushbu nikoh natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muammolarga yuzaki qarash va nikoh shartnomasi qonuniy bolmagani tufayli ko‘pgina yosh qizlar jabir ko‘rmoqdalar. Hozirgi kunda shariy nikoh, asosan, ikkinchi nikoh qurish jarayonida yuzaga kelmoqda. Qonunchiligimiz qat‘iyan taqiqlagan bo‘lsa ham bunday salbiy hodisalar, jarayonlar yildan yilga oshmoqda. Bu jarayonlarni oshishi ko‘payishi aholini bilimlilik darajasini pastligi va oilaga yuzaki qarayotganiligidandir. Biz bunday jarayonlarni oldini olishimiz shart va majburdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergashivich. A. E. Aholini takror ko‘payishini iqtisodiy va statistik taxlili. (Magistrlilik dissertatsiyasi). – 17-76 b.
2. Divorcing procedures in Uzbekistan and its territorial features Tojiyeva, Z.N, Dusmanov, F.A, Ibragimov, L.Z International Journal of Scientific and Technology Research, 2020, 9(1), crp. 4096–4100.
3. Soliyev A. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –T.; Universitet, 2014.
4. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. –T.; Noshir, 2019.
5. LABOUR MARKET AND EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN | TRH PRÁCE A ZAMESTNANOSTĚ V UZBEKISTANE Tojiyeva, Z., Ibragimov, L. Geografický Casopis link is disabled, 2021, 73(4), crp. 359–374.
6. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya, 2010. 276 b.
7. www.migration.uz
8. www.stat.uz
9. www.stat.uz